

8-dars

Darsning mavzusi: Unli tovushlar va harflar (23 – 26-mashqlar)

Darsning ta'limiy maqsadi: tovushlar, ularning so'z ma'nolarini farqlashi, to'g'ri talaffuzi, tovushlarning harflar bilan yozilishi, harflarning belgilari, grafik jihatdan to'g'ri shakllantirish haqidagi bilimlarini eslatish orqali mustahkamlash; unli va undosh tovushlar talaffuzi va imlosi, so'zlarni bo'g'inga bilish; talaffuz me'yorlariga va bo'g'in ko'chirish qoidasiga rioya qila olish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: o'quvchilarni do'stlik ruhida tarbiyalash; o'zidan kattalarga, o'rtoqlariga va o'ziga kichiklarga yordam berish; maktabning ichki qoidalariga va odob-axloq qoidalariga rioya qilish ko'nikmalarini shakllantirish.

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi: o'quvchilardagi bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish; ona tilidagi nutq tovushlarini farqlay olish, mavzuga oid yangi so'zlarni og'zaki va yozma nutqda qo'llay olish.

Darsning turi: mustahkamlovchi dars

Darsning metodi: suhbat, analitik-sintetik metodi, "Idrok" ta'limiy o'yini.

Darsning jihozi: tovushlar uchun katakchalar, kesma harflar, multimedia ilovalari.

Darsning borishi

I. Tashkiliy qism.

- salomlashish;
- davomat;
- ma'naviyat daqiqasi.

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.

Husnixat daqiqasi: *Bir boshq don – bir savat non.*

Uy vazifasi 22-mashqda berilgan vazifalar o'quvchilardan so'raladi. Qo'shimcha savollar berilib, o'tilgan mavzu mustahkamlanadi.

III. Mustahkamlash.

Berilgan rebus o'quvchilar bilan birgalikda bajariladi.

SO+1=SOBIR

K+3=KUCH

5+IK=BESHIK

6+N=OLTIN

8+OYOQ=SAKKIZOYOQ

23-mashq og'zaki bajariladi. Topishmoqning javobi topiladi.

Bir o'lka bor,

U qayer, o'ylang.

Nomida bor,

Bosh kiyim va rang. (Qoraqalpog'iston)

Qoraqalpog'iston so'zidagi har bir harfning alifbodagi o'rni aytiladi.

Shundan so'ng, 24-mashq "Idrok" o'yinidan foydalangan holda bajartiriladi.

Alifbodagi harflar ketma-ket aytiriladi va unli harflar qoldirilib, undosh harflar daftariga yozdiriladi.

Namuna: *Aytilishi: A, B, D, E, F, G...*

Yozilishi: B, D, F, G

25-mashq og'zaki bajartiriladi. "Egizak harflar" nomli kichik hikoya o'qitiladi. Savollarga o'quvchilar bilan birga javob topiladi?

1. Bolalar, sizning sinfingizda ham **H** va **X** ni xafa qiladigan o'quvchilar bormi?

2. O'zingiz-chi, ularni hech ranjitganmisiz?

3. Siz ularni qanday xursand qilgan bo'lar edingiz?

4. O'quvchilar javoblari tinglanib, xulosalar qilinadi.

IV. Darsga yakun yasash va baholash.

Dars yakunida o'quvchilar bugungi darsda o'zlari egallagan bilimlari va darsdan chiqargan xulosalarini bayon etishadi. So'ngra dars davomida faol qatnashgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

V. Uyga vazifa berish.

26-mashq sharti tushuntirib beriladi va uni uyda bajarib kelish kerakligi ta'kidlanadi.